

**XUDOYBERDIBERDI TO'XTABOYEV IJODINING TAHLILI “BESH BOLALI  
YIGITCHA” ROMANI HAQIDA.**

Maxmasoliyeva Raisa Sharofiddin qizi

*SHahrisabz Davlat Pedagogika instetuti*

*Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lif*

*Yo'nalishi talabasi.*

**Annotatsiya:** *Muallif bu asarida bolalarcha beg'uborlik shodlik, g'am urush yillari haqida bayon qiladi. Bosh obraz bo'lmish Orifjonining boshidan o'tgan kunlari haqida gap boradi.*

Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarida bolalarcha shodlik, quvnoqlik oltinga teng yoshlik paytlari keltirib o'tiladi yozuvchi yumorga boyligi, bolalarning ruhiy kechinmalarini qiziqarli hayotiy qilib bolalarbop tarzda nihoyatda jonli yo'sinda tasvirlanadi. Yozuvchining asarlarida so'zlar bolalarga aniq tushunarli hisoblanadi, bundan shuni anglashimiz mumkinki adib so'z qo'llashda juda katta mahoratga ega. Hozir aytib o'tiladigan asar, “Besh bolali yigitcha “ da ham so'zlar chiroli aniq va ravon qilib yoritilgan yozuvchi bu asarda urush yillarida Orifjonning boshidan o'tgan qiyinchiliklari ochib beradi. Ochlik vaqtleri, ota-onasisiz qolgan kunlarida ukalarini o'zi oq yuvib oq tarab katta qilgan vaqtleri aytib o'tiladi. Bu asarning ba'zi joylarida qah-qah urib kulinsa ba'zi vaeqalaridan ta'sirlanib yig'lashimiz mumkin. Bu asarda bolalarcha beguborlik dunyolarga sig'mas mehr-oqibat tasvirlangan bo'lib urush yillaridagi qiyinchiliklar do'stimiz orifjonning hayot yo'llari judayam chiroli tarzda yoritib berilgan.

Urushning kulfatlari Orifjonning ham yelkasiga tushgan. Bu haqda uning o'zi yarim hazil yarim chin qilib shunday deydi: “Belim sal bukikroq buni o'zim ham tan olaman, ukalarimni ko'taraverib shunaqangi bo'lib qolganman, bo'yim ham tengqurlarimga qaraganda sal pastroq, buni ham inkor qilmayman. Men yuqoriga qarab o'saman deganimda ukalarim yelkamga minib olib, pastga qarab bosishavergan. Shuning uchun pakanaroq bo'lib qolgan. Besh bolali deyishlariga ham, rostini aystsam uncha jahlim chiqmaydi. Nega desangiz chindan ham roppa-rosa beshta ukam bor. Beshoviniyam o'zim katta qilganman. Oyijonim traktorchi, urush boshlanganidan buyon kechasi-yu, kunduzi dalada”, Oyimning butun umri mehnatdan iborat bu ayolning oyog'ida doimo kerza etik, erkaklarning paxtali shimi, egnida serpaxta fufayka, boshida qulochchin, yuzlari kir, qo'llari moy” bo'lib yuradi. ( Pirmatov Shermuhammedov filologiya fanlari doktori ).

Orifjonning otasi urushga ketadi. Hamma mas'uliyat yana Orifjonga tushadi. Hayot kunlari qiyinchiliklar bilan davom eta boshlaydi, Onasi kun uzog'i dalada traktor haydaydi Otasining ketishi bilan onasi bolalarga judayam mehribon bo'lib qoladi. Har doim yaxshi o'qishlarini, akasi Orifjonne charchatmasliklarini har doim ta'kidlaydi. Ammo bu ko'p vaqtga bormaydi. Orifjonning katta ukasi Sulton o'zgaradi. Orifjonning aytganini qilmay, hech bir ish qilmay qoladi. U faqat ochlik bilan kurashadi ukalarining ham haqqini og'irlay

boshlaydi. Bu haqida Orifjonning o’zi shunday deydi. “Sulton mana shunaqangi cho’rtkesar, hech ta’riflab bo’lmaydigan darajada dangasa bo’lib boryapti, aftiga qarab bo’lmaydi. Yuziga xuddi tug’ilmaganidan buyon suv tegmaganga o’xshaydi. Bo’ynining kiri xoh ishoning xoh ishonmang xuddi eski maxsidek qat-qat bo’lib ketgan.

Sovunlab yuvgin desam:

-Ertaga tag’in kiradi kir bo’ladi! -deb qo’l siltab qo’ya qoladi. Bugun ertalab u meni yana kuydirdi. Saharda Robinisa bilan Omonni dalaga olib keta turib, men kelguncha sigirni tagini tozalab, choy qaynatib qo’ygin, deb tayinlab ketuvdim. Men ketishim bilan yana o’rniga yotib olibdi.

-Nega sigirga qaramading? -dedim achchig’im chiqib.

-Otam uni sotinglar deb ketgan! -parvosiga ham keltirmay dedi Sulton.

-Axir sotguncha qarab turish kerak-ku?

-Sut bermagandan keyin ahmoq bo’pmanmi qarab qarab, -shunday deb Sulton o’rnidan turayotgan edi, qo’ltig’idan yarimta qotirma tushib ketdi. Ana xolos, ishning bu yog’I yana rasvo bo’lganga o’xshaydi, yugurib borib qozonning qopqog’inni ko’tardim, -yoq, bitta bittasi ham yo’q.

-Qotirmani kim yedi? -dedim qaltirab.

-Men yedim, -dedi Sulton kerishib.

-Nega yeding?

-Qornim och bo’lgandan keyin yeymanda.

-Oqshom To’xta xolam bergen shavlani ham bitta o’zing tushirding-ku?

-Ilitma shavla ekan... Og’zim suv ochib ketdi, - shunday deb Sulton betini ham yuvmasdan mакtabga jo’nab ketdi ”.

Inson hayoti davomida yashaydiki har doim har qanday yoshda ham onaga judayam muhtojdir. Asarimiz qahramonlari esa hayoti davomida onasidan erta ayrilishadi. Bunga sabab onasining ertayu hech tinimsiz mehnat qilib ishlashidadir. Keling bu haqida Orifjonning o’zidan eshitamiz: “Parpi buvam ichkariga, opamning yoniga shoshilib kirib ketdi-yu lekin negadir darrov orqasiga qaytib chiqdi:

-Orifjon, bo’tam! -dedi ovozi qaltirab.

-Nima bo’pti, buvajon?

-Xudo xohlasa hech gapmas, tuzalib qoladi...

-Nima bo’pti nima bo’pti axir?

-Traktor bosib qolibdi.

-Buvajon!

-Yig’lama bo’tam!

Rayon markazidan katta doktori olib kelish uchun ketma-ket ikkita otliqni jo’natib yuborishdi. Tupuriq qurigunicha yetkazib kelmasalaring boshlarining olaman, deb dag’dag’ a qilib qo’ydi rais amaki, keyin qo’lidagi qamchisini Usmon brigadirga o’qtalib:

-Hamma ayb sizda!

Opajonimni uyg'a olib kirishdi va asta asta qo'shnilar chiqishdi hammalari ichkarida uxlab yotgan ukalarimga va menga bir bir qarashardi. -To'xta xolam eshikni ochib, -Xudoga shukur ko'zini ochdi, -dedi-yu, yana eshikni ichidan berkitib oldi. Biroz o'tib Mukarram opam opalaring so'rayapti darrov yuringlar dedi.Ukalarimni olib kirdim .

Opam To'xta xolam tutgan suvni ichgach , ko'zlarini katta-katta ochib atrofga tikilib qaradi, lablari burishib, ko'zlaridan duv-duv etib yosh to'kilib ketd. -Bu kun onam bilan o'tgan oxirgi kunimiz edi..." Shunday deydi asarimiz qahramoni bolalar juda sarson bo'lismadi. Qayerlarga borishmaydi ne kunlarni ko'rmaydi deysiz.Och qolib ketishadi hattoki ularni yetimxonaga yuborishadi hamda aka- ukalarni bo'lib yuborishadi. Bu urush jajji bolalarning erta voyaga yetishiga sabab bo'ladi. Ulrning ochlik bilan kurashlarilari hayotini bir qancha qiyinchilik bilan o'tazgan kunlari asarda o'qib ko'nglingiz xira bo'ladi.

#### XULOSA:

Xulosa qilib aytilganda Xudoyberdi To'xtaboyev asarlarini o'qigan kishi tasirlanmay qolmaydi, chunki yozuvchi asarlari yumorga boyligi hajviyligi hayotiyligi bilan insonni o'ziga jalb qila oladi. Mana hozir siz "Besh bolali yigitcha" asarining qisqacha mazmuni bilan tanishdingiz bu asar ham hayotiyligi qiziqlarliligi, bilan insonlarning qlbidan chuqur joy ola olgandir. Asar voqealaridan inson ba'zida hursand ba'zida esa judayam hafa bo'ladi.